



MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA TASHKIL ETILAYOTGAN "METODIK MAHORAT KUNI" VA "METODIK MAHORAT SOATI" TADBIRLARIDAN KUTILADIGAN NATIJALAR

Turaxujayeva Madina Norpo'latovna,

Jizzax viloyati Pedagogik mahorat markazi metodik xizmat ko'rsatish bo'limi maktabgacha ta'lim metodisti.

Annotatsiya. *Maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim sifatini ta'minlash, jarayonga innovatsiyalarni, ilg'or pedagogik va raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, pedagog xodimlarning kasbiy mahoratini oshirish va metodik tayyorgarligini takomillashtirish va bundan ko'zlangan maqsad haqida yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *Metodik mahorat kuni va metodik mahorat soati.*

Аннотация. *В статье рассматриваются вопросы качества образования в дошкольных образовательных организациях, широкого внедрения инноваций в процесс, передовых педагогических и цифровых технологий, повышения квалификации и методической подготовки педагогических работников, а также преследуемая цель.*

Ключевые слова. *День методического мастерства и час методического мастерства.*

Abstract. *The article covers the quality of education in preschool educational organizations, the widespread introduction of innovations in the process, advanced pedagogical and digital technologies, the improvement of professional skills and methodological training of pedagogical workers, and the purpose pursued.*

Keywords: *Methodological skill day and methodological skill hour.*

Muhtaram yurtboshimizning "Qaysi sohani olmaylik, zamonaviy yetuk kadrlarni tarbiyalamasdan turib biron-bir o'zgarishga, farovon hayotga erisha olmaymiz. Bunday kadrlarni, millatning sog'lom genofondini tayyorlash, avvalo, maktabgacha ta'lim tizimidan boshlanadi" degan fikrlari ayni haqiqatdir.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tashkil etilayotgan "Metodik mahorat soati" tadbirlari tashkilotdagi har bir pedagogning ta'limiy faoliyatiga bo'lgan munosabatini tubdan o'zgartirdi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti direktor o'rinbosarlari, ya'ni yetakchi pedagoglar tomonidan tashkil etilayotgan "Metodik mahorat soati" tadbirlari "Metodik mahorat kuni" tadbirlaridan olingan bilim, ko'nikma va amaliy tajribalarini o'zlari uchun yana bir bor mustahkamlab olish va



tashkilotdagi pedagoglarga yangi bilim, yangi metodikalar hamda har bir ta'limiy faoliyatga kreativ yondashish uchun xizmat qilmoqda.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagoglari asosan tarbiyachi pedagoglar asosiy vaqtini tarbiyalanuvchilar bilan o'tkazganligi sababli uzluksiz metodik yordamga muhtoj edilar. "Metodik mahorat soati" tadbirlarining tashkil etilishida yana bir quvonarli holat bu tarbiyachi-pedagoglar o'z ta'limiy faoliyatlari jarayonida yetakchi pedagogdan yangi bilimlarni amaliy jarayonda o'rganib olishlaridir.

"Metodik mahorat kuni" tadbirlari 1 oyda ikki marotaba tashkil etilishiga qaramasdan, oy mavzusi asosidagi 4 ta hafta mavzularini ham o'z ichiga qamrab olgan. Yetakchi pedagoglar o'zining birinchi haftasida tayanch maktabgacha ta'lim tashkiloti trener (mentordan) olgan bilimlarini, tadbir davomidagi amaliy tajribalarini keyingi "Metodik mahorat kuni" tadbiriga qadar "Metodik mahorat soati" tadbirlarida tashkilotning tarbiyachisi, til o'qituvchisi, logoped, psixolog musiqa rahbari va jismoniy tarbiya yo'riqchilariga mohirlik bilan yetkazib berishga harakat qilmoqdalar.

Bugungi kunda nafaqat maktabgacha ta'lim sohasida balki ta'limning barcha jabhalarida pedagoglarning uzluksiz kasbiy rivojlanishi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Maktabgacha ta'lim sohasining asosiy maqsadi "Ilk va maktabgacha yoshidagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari"da keltirilganidek, maktabgacha ta'lim tizimida ma'nan mukammal va intellektual rivojlangan shaxsni tarbiyalashdir.

Kelajak avlodga ta'lim va tarbiya berib ularning barkamol shaxs sifatida shakllanishida fidoiylik ko'rsatib kelayotgan pedagoglarimizning kasbiy rivojlanishida uzluksiz metodik yordam berishni, maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarimizga bo'lgan yana bir salmoqli e'tibor deb hisoblayaman.

Pedagoglarimizning kasbiy bilim, ko'nikma va mahoratini muntazam oshirib borish orqali maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi ta'lim-tarbiya jarayonlarining sifati va samaradorligi oshiriladi.

Bunday tadbirlarning tashkil etilishida aniq maqsad va kutiladigan natijalar qo'yiladi. "Metodik mahorat kuni" va "Metodik mahorat soati" tadbirlarining o'quv dasturi "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi asosida tuzilgan bo'lib, bolalarda tayanch kompetensiyalarini shakllantirishning ustuvor yo'nalishlari, guruhlarda interaktiv mashg'ulotlar o'tkazish, "STEAM" texnologiyasini qo'llash, interfaol o'yinlarni o'tkazish metodikalari, o'quv metodik vositalar, didaktik qo'llanmalar, ko'rgazmali materiallar va o'yinchoqlar to'plamlaridan foydalanish texnologiyalarining mazmun va mohiyatini ochib bermoqda.



Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining direktor o'rinbosarlari, ya'ni yetakchi pedagoglar "Metodik mahorat kuni" tadbirlarida faol ishtirok etishib, o'z ish tajribalari, muvaffaqiyatli amaliyotlari va innovatsion g'oyalari bilan o'rtoqlashmoqdalar. Bu esa jamoada sog'lom raqobat va ijodiy muhitni shakllantirmoqda.

"Metodik mahorat soati" tadbiri pedagoglarga o'z faoliyatini tahlil qilish, kuchli va zaif tomonlarini aniqlash, o'z ustida ishlash imkonini bermoqda. Bu jarayon refleksiya va shaxsiy rivojlanishga turtki bo'ladi. Sifatli mashg'ulotlar orqali pedagoglar bolaning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda individual yondashuvlarni shakllantiradi. Natijada, bolalarning bilim, ko'nikma va malakalari yaxshilanadi. Bu esa "Metodik mahorat kuni" va "Metodik mahorat soati" tadbirlaridan ko'zlangan maqsad va kutiladigan natija hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. **O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun ILK QADAM** davlat o'quv dasturi.
2. O'zbekiston Respublikasi "Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari".
3. "Metodik mahorat kuni" va "Metodik mahorat soati" qo'llanmasi
4. Internet ma'lumotlari.